QASHQADARYO VILOYATI
CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181200, Chiroqchi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 19-uy. Faks: (+99875)562-18-55, t.chiroqchi@exat.uz

2022 - yil 1 - avgust 352-4-66-Q/22 Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tumanida oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish” Qoidalariga muvofiq, aholini arzon narxlarda oziq-ovqat nahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan yarmarka o‘tkazish to‘g‘risida bildirilgan takliflarni inobatga olib, “Chiroqchi dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ hududida har haftaning shanba va yakshanba kunlari soat 7-00 dan 17-00 gacha yarmarka tashkil etilishi belgilab qo‘yilsin.

2. Quyidagilar:

yarmarkada qat’iy ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlar sotilishiga ruxsat berilishi;

tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo yarmarkasi savdo rastalari bepul berilishi;

sotuvchilar tomonidan yarmarka uchun ajratilgan savdo o‘rinlarini toza va tartibli saqlash uchun mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Yarmarkada mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan fuqaro, fermer xo‘jaliklari va boshqa tadbirkorlik subyektlar tomonidan amalga

oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi ma’lumotnoma);

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

inson iste’molga yaroqliligini tasdiqlovchi hujjat.

4. “Chiroqchi dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ:

yarmarka tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan kirish qismidan, bozor umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joy ajratish;

yarmarka uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarini bepul berish;

tashkil etilgan yarmarkani ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish hamda bozorning kirish qismi va tumanning aholi gavjum joylariga e’lonlar joylashtirish topshirilsin.

5. Chiroqchi tuman davlat soliq inspeksiyasi (G‘.Karamanov), haftaning har shanba va yakshanba kunlari yarmarka tashkil etish uchun joy ajratilganligi, o‘tkazilayotganligi hamda yarmarka hududida savdo o‘rinlari bepul berilishi, shuningdek yarmarka savdosiga chiqarilgan tovarlarning kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlari mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Chiroqchi tuman Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi (Kenjayev), yarmarkada sotilayotgan mahsulotlarni turiga qarab joylashtirilganligi hamda sifati sanitariya qoidalari normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Chiroqchi tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Beshimqulov), yarmarka o‘tkaziladigan kunda bozor hududida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (S.Abdunaimov), “Chiroqchi” gazetasi hamda hokimlikning Chiroqchi.uz rasmiy veb-saytida qaror mazmun-mohiyati to‘g‘risida e’lon joylashtirsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi bilan tuman hokimining 2021-yil 25-fevraldagi HQ-472/02-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Tadjiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.Erkayev**